Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal
IF(Impact Factor) 9.573/2026
ISSN 2181-1881

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Google Scholar
doi® digital object identifier
Academic Resource Index ResearchBib
Crossref
SLIB.UZ Scientific library of Uzbekistan

2/2026

TAHRIR HAY'ATI

Muzaffar KOMILOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR – O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy

Bahrom ABDUHALIMOV – tarix fanlari doktori, professor

Davronbek MAXSUDOV – tarix fanlari doktori, professor

Ahadjon HASANOV – tarix fanlari doktori, professor

Zohidjon ISLOMOV – filologiya fanlari doktori, professor

Shovosil ZIYODOV – tarix fanlari doktori, professor

Uyg‘un G‘AFUROV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Jamoliddin KARIMOV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ibrohim USMONOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ahmad Sa’d DAMANHURIY – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Mahmud Erol QILICH – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Nazir Muhammad AYYAD – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Rejep TUZJU – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Muhammad Rashid AKPINAR – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ashirbek MUMINOV – tarix fanlari doktori, professor

Kamaluddin Nurdin MARJUNI – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professor

Jasur NADJIMITDINOV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining 2026-yil 26-oktyabrdagi 03-07/8377-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

Muassis:

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

Bosh muharrir:

Komiljon Shermuxamedov
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Shahzod Islamov
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Sahifalovchi:

Zarifjon Arslonov

Dizayner:

Zarifjon G‘ulomov

«**MOTURIDIYLIK**» jurnali **O‘zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiya**sining 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori bilan dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2021-yil 12-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1139 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 11-uy.
E-mail:info@maturidijournal.org
Web-sahifa:maturidijournal.org
Telefonlar:(+99855) 515-98-98

МУНДАРИЖА

ISLOMSHUNOSLIK

Muzaffar KAMILOV
Sirojiddin O‘shiyning «al-Fatovo» asarida muftiy odoblari va unga qo‘yiladigan talablar 4

Otabek MUHAMMADIYEV
Dorul hadis – hadis markazlari faoliyati tahlili 15

Mekhrojiddin AMONOV
Zarafshon vohasidagi tariqat murshidlari: o‘zaro munosabat va tahlil 26

Hamida ILHOMOVA
Abu Hanifa shaxsiyati va ilmiy merosining o‘rganilishi 34

ISLOM HUQUQI

Nargiza KHALKHODJAEVA
Islomda farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq sunnat amallarning tarbiyaviy ahamiyati 41

Rakhshona KENJABOYEVA
Sadr shahid Husomuddin Umar Buxoriyning «Kitob al-vaqf» asarida faqihlarning vaqf nazariyasi: fiqhiy bahslar va ularning huquqiy ahamiyati 47

DINSHUNOSLIK

Rustamjon BOZOROV
«Tablig‘ jamoati»ning Markaziy Osiyoda tarqalish omillari va milliy xavfsizlikka ta’siri 57

ISLOM TARIXI VA MANBASHUNOSLIGI

Shahzod ISLAMOV, Olovkhon NEMATOV
Abu Hafs Nasafiyning «al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand» asari VIII–XII asrlar Samarqand ilmiy muhiti haqidagi nodir manba 64

Doston MUSTAFOYEV
Tarjumon al-Qur’on – Qur’on lug‘ati ma’nolariga oid xalqchil risola 80

FILOLOGIYA

Nodirabegim SAIDOVA
Bo‘lajak arab tili o‘qituvchilarini tayyorlashda kasbiy va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish (oliy ta’lim muassasalari tajribasi misolida) 86

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MOTURIDIYLIK
https://maturidijournal.org/index.php/moturidiylik
https://doi.org/10.65944/MOTURIDIY/2026-2/10

Nodirabegim SAIDOVA[a]
[a]*Senior Lecturer*
International Islamic Studies Academy of Uzbekistan
11A. Abdulla Qodiriy Street, Tashkent, 100011, Uzbekistan
E-mail: uzbbegim@gmail.com

BO‘LAJAK ARAB TILI O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KASBIY VA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH (OLIY TA’LIM MUASSASALARI TAJRIBASI MISOLIDA)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak arab tili o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik va madaniyatlararo kompetensiyalarini o‘zaro uyg‘unlikda shakllantirish masalasi tadqiq etilgan. Globallashuv va O‘zbekistonning arab mamlakatlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hamda diplomatik aloqalari rivojlanayotgan sharoitda arab tili o‘qituvchisidan nafaqat mustahkam lingvistik bilim, balki arab madaniyati, milliy mentaliteti, nutqiy etiketi va sotaomadaniy xususiyatlarini anglash hamda ularni ta’lim jarayoniga integratsiyalash qobiliyati talab etiladi.*

Tadqiqotda kasbiy kompetensiya, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya va arab tilini chet tili sifatida o‘qitish (TAFL) metodikasiga oid nazariy yondashuvlar tahlil qilingan. Bo‘lajak o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasini aniqlash maqsadida nazariy tahlil, qiyosiy o‘rganish, so‘rovnoma, vaziyatli test, pedagogik kuzatuv va tajriba-sinov usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotda 120 nafar talaba va 25 nafar yosh o‘qituvchi ishtirok etgan, shuningdek, 60 nafar talaba ishtirokida nazorat va tajriba guruhlari asosida olti oylik tajriba-sinov o‘tkazilgan.

Kalit so‘zlar:*arab tilini o‘qitish, bo‘lajak o‘qituvchi, kasbiy kompetensiya, madaniyatlararo kompetensiya, sotaomadaniy yondashuv, TAFL, madaniy integratsiya, arab madaniyati, nutqiy etiket, arab dialektlari, diglossiya, kommunikativ kompetensiya, pedagogik mahorat, vaziyatli o‘qitish, rolli o‘yinlar.*

FORMATION OF PROFESSIONAL AND INTERCULTURAL COMPETENCIES IN FUTURE ARABIC LANGUAGE TEACHERS (BASED ON THE EXPERIENCE OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS)

Abstract. *This article investigates the integrated development of professional-pedagogical and intercultural competencies in future Arabic language teachers within higher education institutions. In the context of globalization and expanding socio-economic, cultural, and diplomatic ties between Uzbekistan and Arab countries, an Arabic language teacher must possess not only strong linguistic knowledge, but also the ability to understand Arab culture, national mindset, speech etiquette, and sociocultural nuances, as well as integrate them into the educational process.*

The study analyzes theoretical approaches related to professional competence, intercultural communicative competence, and Teaching Arabic as a Foreign Language (TAFL) methodologies. To assess the readiness level of future teachers, methods such as theoretical analysis, comparative study, surveys, situational testing, pedagogical observation, and experimental testing were utilized. The study involved 120 students and 25 young teachers, along with a six-month experimental study conducted with control and experimental groups comprising 60 students.

Keywords:*Arabic language teaching, future teacher, professional competence, intercultural competence, sociocultural approach, TAFL, cultural integration, Arab culture, speech etiquette, Arabic dialects, diglossia, communicative competence, pedagogical skill, situational teaching, role-playing games.*

KIRISH

Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi va xalqaro munosabatlarning yangi bosqichga ko‘tarilishi oliy ta’lim tizimi oldiga chet tillarini, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy tillaridan biri bo‘lgan arab tilini o‘qitish metodikasini tubdan takomillashtirish vazifasini qo‘ymoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi va Yaqin Sharq hamda Shimoliy Afrika mamlakatlari o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va diplomatik aloqalarning izchil rivojlanishi amaliyotda yuqori malakali, nafaqat til grammatikasini, balki arab mentaliteti va madaniyatini ham chuqur tushunadigan kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni keskin oshirdi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2012).

Biroq, ko‘p yillik pedagogik tajribamiz va auditoriya mashg‘ulotlari tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, oliy ta’lim muassasalarida arab tilini o‘qitish asosan sof lingvistik qoidalarni (morfologiya, sintaksis, lug‘at boyligi) o‘zlashtirishga qaratilib, talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish masalasi ko‘pincha ikkinchi darajali bo‘lib qolmoqda. Natijada oliygohni tamomlayotgan yosh o‘qituvchilar akademik arab tili bo‘yicha mustahkam nazariy bilimlarga ega bo‘lsalar-da, real kommunikativ vaziyatlarda pragmatik xatolarga yo‘l qo‘yish, dialektal o‘ziga xosliklarni ilg‘amaslik va arab madaniyatiga xos bo‘lgan nutqiy etiketlarni noto‘g‘ri qo‘llash holatlariga tez-tez duch kelishmoqda (Jalolov, 2012; Al-Batal, 2018).

Zamonaviy lingvodidaktikada til va madaniyatning uzviy bog‘liqligi aksioma hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, bo‘lajak arab tili o‘qituvchisi nafaqat til faktlarini talabalarga yetkazuvchi «axborot manbai», balki ikki sivilizatsiya o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘taydigan «madaniyatlararo vositachi» rolini ham bajarishi zarur (Kramsch, 1993). M.Bayramning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya modeliga tayanadigan bo‘lsak, chet tilini o‘rganuvchi va o‘rgatuvchi shaxsda «tanqidiy madaniy xabardorlik» kognitiv darajada shakllangan bo‘lishi shart (Bayram, 1997).

Bo‘lajak arab tili o‘qituvchilarini tayyorlashda ushbu madaniy yondashuvni bevosita kasbiy-pedagogik kompetensiya bilan integratsiya qilish o‘ta dolzarb masaladir. YA’ni, talaba shunchaki arab xalqlari madaniyatini tushunibgina qolmay, pedagogik faoliyati davomida ushbu sotsiomadaniy bilimlarni o‘z o‘quvchilariga darsliklar, qo‘shimcha materiallar va rolli o‘yinlar orqali yetkazib bera oladigan uzluksiz metodik mahoratga ega bo‘lishi talab etiladi (Xolmuradov, 2021:45–52).

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolaning asosiy maqsadi oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak arab tili o‘qituvchilarining kasbiy va madaniyatlararo kompetensiyalarini o‘zaro uzviylikda shakllantirishning bugungi holatini tahlil qilish, mavjud pedagogik to‘siqlarni aniqlash hamda amaliyotda o‘zini oqlagan, zamonaviy metodik model va yondashuvlarni tavsiya etishdan iborat.

ASOSIY QISM

Tadqiqot muammosining ko‘p qirrali ekanligi adabiyotlar tahlilini uchta asosiy yo‘nalishda – pedagogik-kasbiy kompetensiya, madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyalari hamda bevosita arab tilini chet tili sifatida o‘qitish (TAFL) metodikasi doirasida olib borishni taqozo etadi. Jahon va mahalliy lingvodidaktikada mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha olib borilgan izlanishlarni qiyosiy o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, til va madaniyat integratsiyasiga asoslangan yondashuvlar so‘nggi o‘n yillikning eng ustuvor tadqiqot obyektiga aylangan.

Pedagogik mahorat va zamonaviy metodikalarni qo‘llash o‘zbekistonlik olimlardan J.Jalolov, U.Hoshimov, I.Yoqubovlarning chet tili o‘qitish metodikasi bo‘yicha yaratgan fundamental asarlari bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi uchun tayanch metodologik baza vazifasini o‘taydi (Jalolov va b., 2015). Ushbu manbalarda pedagogik mahorat, nutq faoliyati turlarini shakllantirish va auditoriyani boshqarish texnikalari chuqur yoritilgan. Biroq bu tadqiqotlar asosan german va roman tillari (ingliz, nemis, fransuz) o‘qitish tajribasiga asoslangan bo‘lib, som tillari oilasiga mansub arab tilining fonetik-grafik, morfologik va sotsiolingvistik o‘ziga xosliklarini to‘liq qamrab olmagan.

Xorijiy olimlardan V.A.Slastenin (Slastenin va b., 2013) va J.Richardslarning (Richards, Rodgers, 2014) asarlarida kasbiy kompetensiya shunchaki fan doirasidagi axborotni uzatish emas, balki kognitiv, psixologik va metodik ko‘nikmalarning doimiy yangilanib boruvchi dinamik jarayoni sifatida baholanadi. Ular bo‘lajak o‘qituvchi o‘zgaruvchan auditoriya ehtiyojlariga moslasha oladigan «refleksiv amaliyotchi» bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydilap.

Til va madaniyat integratsiyasi nazariyalari bo‘lajak arab tili o‘qituvchilarini tayyorlashda madaniy komponentni baholash tadqiqotimizning asosiy negizidir. Bu borada britaniyalik olim M.Bayramning «Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya» modeli tadqiqotimizning nazariy poydevori hisoblanadi.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Bayram o‘zining modelida chet tili o‘qituvchisi beshta asosiy elementni integratsiya qila olishi kerakligini uqtiradi (Bayram, 1997):

Savoir être – boshqa madaniyat vakillariga nisbatan tolerantlik va xolis munosabat;

Savoirs – o‘zining va o‘rganilayotgan til xalqining sotsiomadaniy qoidalarini bilish;

Savoir comprendre – madaniy hodisalarni to‘g‘ri tahlil qilish va izohlash;

Savoir apprendre/faire – yangi madaniy bilimlarni mustaqil kashf etish va ularni muloqot jarayonida qo‘llash;

Savoir syengager – tanqidiy madaniy xabardorlik.

K.Kramsh va E.I.Passov kabi olimlar ham til o‘qitishda sotsiomadaniy kontekstning ustuvorligini ta’kidlab, til qoidasidagi xatodan ko‘ra, muloqot jarayonidagi madaniy xato kommunikatsiyani ko‘proq izdan chiqarishini asoslab berishgan (Kramsch, 1993).

TAFL doirasidagi sotsiomadaniy yondashuvlar G‘arb va arab dunyosida TAFL (Teaching Arabic as a Foreign Language) metodikasi o‘tgan asrning oxirlaridan boshlab sof grammatik-tarjima usulidan muloqotga yo‘naltirilgan va madaniyatga asoslangan yondashuvlarga keskin o‘tdi. M.Al-Batal, K.Vahba va Z.Toha kabi taniqli arab metodistlari arab tilini o‘qitishdagi eng katta muammo – diglossiya (adabiy til hamda dialektlar o‘rtasidagi tafovut) ekanligini ta’kidlashadi.

M.Al-Batal o‘z tadqiqotlarida bo‘lajak o‘qituvchilar dars jarayonida madaniyatni faqat adabiy til orqali emas, balki kundalik muloqotni aks ettiruvchi dialektlar orqali ham berishi kerakligini, bu xuddi «Bitta arab tili» sifatida uzviy o‘rgatilishi shartligini ilgari suradi (Al-Batal, 2018). Shuningdek, K.Vahbaning TAFL bo‘yicha yozgan fundamental qo‘llanmalarida arab mentalitetiga xos bo‘lgan tana tili, diniy-madaniy iboralar va muloqot etiketini auditoriyada modellashtirishning zamonaviy usullari batafsil yoritilgan (Wahba va b., 2006).

Qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, jahon metodikasida arab tili o‘qituvchisini tayyorlash bo‘yicha qator innovatsion yondashuvlar mavjud bo‘lsa-da, respublikamiz oliy ta’lim muassasalarida ushbu xalqaro tajribani o‘zbekzabon talabalar xususiyatlariga moslashtirish, amaliy o‘quv dasturlarida kasbiy va madaniyatlararo kompetensiyalarni sinkretik holatda rivojlantirish muammosi maxsus tadqiqotni talab etadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, bo‘lajak arab tili o‘qituvchilarida kasbiy va madaniyatlararo kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini xolis baholash hamda taklif etilayotgan metodik modelning samaradorligini isbotlash uchun aralash yondashuvga murojaat qilindi. Izlanishning ishonchliligi va obyektivligini ta’minlash maqsadida o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi quyidagi nazariy va empirik usullar majmuasidan foydalanildi:

1. Nazariy metodlar – muammoning ontologik va gnoseologik ildizlarini tushunish, tadqiqotning konseptual asosini yaratishga xizmat qildi.

Lingvodidaktika, pedagogik psixologiya, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda arab tilini chet tili sifatida o‘qitish (TAFL) sohasiga oid mahalliy va xorijiy (ayniqsa, arab va g‘arb) olimlarining fundamental ishlari monografik tahlil qilindi. Bu orqali tadqiqot muammosining bugungi kungacha o‘rganilganlik darajasi xaritasi yaratildi.

O‘zbek va arab xalqlarining sotsiomadaniy qadriyatlari, milliy mentaliteti, nutqiy etiketlari (salomlashish, murojaat qilish, xushmuomalalik ifodalari) qiyosiy o‘rganildi. Shuningdek, an’anaviy grammatik-tarjima metodikasi va zamonaviy kommunikativ-madaniy yondashuvlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari solishtirildi. Arab adabiy tili va dialektlari o‘rtasidagi tafovutlarni ta’lim jarayoniga kiritishning nazariy modellariga baho berildi.

2. Empirik metodlar – tadqiqotning amaliy holatini o‘rganish, dastlabki va yakuniy tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish maqsadida respublikamizdagi arab tili chuqurlashtirib o‘qitiladigan yetakchi oliy ta’lim muassasalari (xususan, O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi) bazasida amaliy izlanishlar olib borildi.

Arab tili filologiyasi yo‘nalishining 3 va 4-bosqich talabalari (jami 120 nafar) hamda oliygohlarda faoliyat yuritayotgan, 3 yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan yosh o‘qituvchilar (25 nafar) o‘rtasida anonim so‘rovnomalar o‘tkazildi. So‘rovnomaning asosiy maqsadi – respondentlarning arab sotsiomadaniy voqeligiga oid xabardorlik darajasini va amaliy pedagogik faoliyatda duch kelayotgan lingvokulturologik, psixologik to‘siqlarni aniqlashdan iborat bo‘ldi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning nafaqat leksik-grammatik, balki sotsiopragmatik va kasbiy kompetensiyalarini o‘lchash maqsadida vaziyatli test sinovlari olindi. Bunda talabalarga real hayotiy va pedagogik vaziyatlar (masalan, arab tili tashuvchisi bilan muloqotda yuzaga kelgan tushunmovchilikni hal qilish yoki darsda ma’lum bir madaniy matnni o‘quvchilarga tushuntirish) taqdim etilib, ularning qaror qabul qilish ko‘nikmalari baholandi.

Yosh pedagoglar va amaliyot o‘tayotgan talabalarning dars mashg‘ulotlari bevosita kuzatildi. Kuzatuv jarayonida o‘qituvchining darsni rejalashtirishi, auditoriyani boshqarishi, madaniy elementlarni (audio-video

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

materiallar, vizual vositalar) darsga qay darajada tabiiy integratsiya qila olishi hamda talabalarning reaksiyasi maxsus ishlab chiqilgan mezonlar asosida qayd etib borildi.

Empirik tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlar sifat va miqdoriy jihatdan qayta ishlandi hamda matematik-statistik usullar yordamida ishonchliligi tekshirilib, diagramma va jadvallar ko'rinishida umumlashtirildi.

Olib borilgan nazariy tahlillar va auditoriya kuzatuvlari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak arab tili o'qituvchilarini tayyorlash faqatgina tilshunoslik qoidalarini o'rgatish bilan cheklanib qolmasligi shart. Tadqiqotimiz doirasida O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi arab filologiyasi yo'nalishi talabalari bazasida tajriba-sinovdan o'tkazildi. Olingan asosiy natijalar va metodik yechimlarni uchta yo'nalishda umumlashtirish mumkin.

1. Kasbiy-pedagogik tayyorgarlik:innovatsion va refleksiv yondashuv.

Bo'lajak mutaxassislarni zamonaviy ta'lim talablariga moslashtirish maqsadida ularning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda an'anaviy ma'ruza usulidan voz kechilib, amaliy-refleksiv yondashuvlarga ustuvorlik berildi:

Dars rejalashtirish: talabalarga nafaqat lingvistik maqsadlarni, balki madaniy va pragmatik maqsadlarni ham qamrab oluvchi uch o'lchamli dars ishlanmalarini tuzish o'rgatildi. Bunda TBLT (Task-Based Language Teaching – Vazifaga yo'naltirilgan o'qitish) metodidan keng foydalanildi.

Auditoriyani boshqarish: o'zbekzabon auditoriyada arab tilini o'qitishda o'quvchilarning psixologik to'siqlarini (xato qilishdan qo'rqish, talaffuzdagi uyatchanlik) yengish bo'yicha maxsus treninglar o'tkazildi. Bo'lajak o'qituvchilarga «Teskari sinf» (Flipped Classroom) texnologiyasi orqali talabalarning mustaqil izlanishlarini tashkil etish usullari ko'rsatildi.

Format va summativ baholash: baholash mezonlariga faqat grammatik to'g'rilik emas, balki «madaniy moslik» reytingi ham kiritildi.

2. Arab madaniyati elementlarini darsga integratsiya qilish.

Til va madaniyatni ajratib bo'lmasligi aksiomasidan kelib chiqib, tajriba guruhidagi dars jarayonlariga arab sotsiomadaniy voqeligi faol tarzda tatbiq etildi. Bu jarayon ikki muhim jihatni qamrab oldi:

• muloqot etiketi va kinestetika (tana tili): Arab mentalitetida noverbal aloqa vositalari muloqotning qariyb 60-70 foizini tashkil etadi. Shuni inobatga olib, bo'lajak o'qituvchilarga quyidagi sotsiopragmatik normalarni darsga olib kirish tavsiya etildi:

• salomlashish va xayrlashish etiketi: arablarda salomlashish shunchaki so'z almashish emas, balki ijtimoiy maqom, jins va vaziyatga qarab o'zgaruvchi murakkab ritualdir. Masalan, rasmiy «السلام عليكم» va norasmiy «أهلاً وسهلاً» iboralariga beriladigan javoblarning xilmaxilligi, qo'l berib ko'rishishdagi gender cheklovlari tushuntirildi.

Murojaat shakllari: arab jamiyatidagi iyerarxiyani hurmat qilish madaniyati. Masalan, ismga «يا» chaqiriq yuklamasini qo'shish, «أستاذ», «شيخ», shuningdek, kunyalardan «أبو», «أم» foydalanishning ijtimoiy ahamiyati modellashtirildi.

Kinestetika: tasdiq yoki inkor ma'nosini ifodalashda bosh va qosh harakatlarining o'ziga xosligi (masalan, qoshni tepaga ko'tarish va «t-ch» tovushini chiqarish arablarda qat'iy inkorni bildirishini) o'quvchilarga yetkazish metodikasi ishlab chiqildi.

Arab tili metodikasidagi eng og'riqli nuqta – m bu diglossiyadir. Talabalar 4 yil davomida faqat adabiy tilni o'rganib, arab davlatlariga borganda yoki mahalliy arablar bilan muloqotda «jonli tilni» tushunmay, kognitiv dissonansga tushishadi. Bizning yechim:bo'lajak o'qituvchilarga darslarning 80 foizida adabiy tilni saqlab qolgan holda, 20 foiz vaqtni kundalik muloqotga oid Misr yoki Shom dialektlariga ajratish metodikasi o'rgatildi. Talabalar adabiy til va dialekt o'rtasidagi o'zaro o'tish holatlarini tushunishni boshladilar.

3. Metodik yechim va tajriba-sinov natijalari.

Yuqorida taklif qilingan metodikani tekshirish uchun 3-bosqich talabalaridan iborat 60 nafar ishtirokchi ikki guruhga bo'lindi: Nazorat guruhi (30 nafar) – an'anaviy grammatik-tarjima usulida o'qitildi, Tajriba guruhi (30 nafar) – vaziyatli o'yinlar va madaniy integratsiyalashgan modul asosida o'qitildi.

Tajriba guruhida bozor, bojxona, universitet yoki arab oilasida mehmonda bo'lish kabi real vaziyatlar modellashtirildi. Olti oylik tajriba-sinov yakunida har ikki guruhdan maxsus ekspertiza sinovlari olindi.

Tajriba va nazorat guruhlarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari dinamikasi

Baholanuvchi kompetensiyalar	Nazorat guruhi (bosh-lang'ich %)	Nazorat guruhi (yakuniy %)	Tajriba guruhi (bosh-lang'ich %)	Tajriba guruhi (yakuniy %)
Leksik-grammatik to'g'rilik	62%	68%	61%	84%
Sotsiomadaniy muloqot va etiket	45%	48%	43%	89%
Dialektal xabardorlik	12%	15%	10%	76%
Kasbiy-pedagogik mahorat (dars o'tish)	50%	55%	52%	85%

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Olingan natijalar matematik-statistik tahlil qilinganda, tajriba guruhidagi ko‘rsatkichlarning o‘sish sur’ati statistik jihatdan yuqori ekanligi isbotlandi. Xususan, an’anaviy usulda o‘qitilgan nazorat guruhida sotsiomadaniy muloqot va etiket bo‘yicha deyarli ijobiy siljish kuzatilmagan bo‘lsa (45% dan 48% ga), tajriba guruhida maxsus rolli o‘yinlar va videokontentlar orqali bu ko‘rsatkich 89% gacha ko‘tarildi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning darsni rejalashtirish va boshqarish (kasbiy-pedagogik mahorat) ko‘rsatkichi 85% ni tashkil etib, ular kelajakda nafaqat til o‘qituvchisi, balki chinakam «madaniyatlararo vositachi» bo‘lib shakllanishlari uchun mustahkam zamin yaratilganligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot doirasida olingan amaliy natijalar xorijiy va mahalliy lingvodidaktikada shu kungacha olib borilgan izlanishlar xulosalari bilan qiyosiy tahlil qilinganda, bir qator muhim ilmiy-metodik farqlar va tasdiqlar yuzaga chiqdi. Xususan, J.Jalolov va U.Hoshimovlarning an’anaviy chet tili o‘qitish metodikasiga oid izlanishlarida grammatik-leksik qoidalarni to‘g‘ri qo‘llash muloqotning asosi sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, bizning natijalarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, sof lingvistik to‘g‘rilik real muloqot vaziyatlarida muvaffaqiyatni kafolatlamaydi. Xorijiy TAFL metodistlari M.Al-Batal va K.Vahba (Al-Batal, Belnap, 2006:389–399) ta’kidlaganidek, arab tilini o‘qitishda sotsiopragmatik normalarning chetga surilishi xatolarning eng xavflisi – «pragmatik xato»ga olib keladi. Bizning tajriba-sinov guruhidagi ko‘rsatkichlarning keskin o‘sishi M. Bayramning madaniyatlararo muloqot modelining naqadar hayotiyligini yana bir bor isbotladi.

Biroq ushbu xalqaro modellarni amaliyotga joriy etish jarayonida o‘zbekzabon talabalarda o‘ziga xos qator kognitiv va psixologik to‘siqlar yuzaga kelishi kuzatildi.

1. Madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishdagi psixologik va kognitiv to‘siqlar.

Ko‘p yillik pedagogik tajribamiz va so‘rovnoma natijalari o‘zbek auditoriyasida quyidagi o‘ziga xos to‘siqlar mavjudligini ko‘rsatdi:

• arab tili grammatikasi va adabiy matnlari ustida yillar davomida ishlagan talabalar ilk bor arab muloqot muhitiga (yo‘ldosh telekanallar, arab sayyohlari bilan uchrashuv yoki audio-materiallar) tushganda, o‘zlari o‘rgangan til va real kundalik til o‘rtasidagi ulkan jarlikni ko‘rib, jiddiy kognitiv shokni boshdan kechiradilar (Trentman, 2013:457–473). Bu holat ularda o‘z bilimiga nisbatan ishonchsizlik va motivatsiyaning tushib ketishiga sabab bo‘ladi.

• talabalar ona tili va madaniyatiga xos bo‘lgan pragmatik qoliplarni beixtiyor arab tiliga ko‘chiradilar. Garchi, islom madaniyati doirasida o‘zbek va arab xalqlari o‘rtasida o‘xshashliklar ko‘p bo‘lsa-da, etiket normalarida jiddiy farqlar mavjud. Masalan, arablarda suhbatdoshning shaxsiy hududiga yaqin turib gaplashish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘zga qarab muloqot qilish yoki ovoz tonini balandlatish samimiylik belgisi sanalsa, o‘zbek mentalitetida bu ko‘pincha qo‘pollik yoki hurmatsizlik sifatida qabul qilinadi. Talabalarning ushbu farqlarni qabul qilishidagi ruhiy qarshiligi jarayonni sekinlashtiradi.

Xato qilishdan qo‘rqish kompleksi an’anaviy ta’limimizning eng og‘riqli nuqtalaridandir. Talabalar qoidani noto‘g‘ri aytib qo‘yishdan qo‘rqib, gapirishdan ko‘ra sukut saqlashni afzal bilishadi.

2. Xorijiy tajribani milliy ta’lim tizimiga moslashtirish muammolari.

Z.Dörnei va K.Ryding kabi olimlarning g‘arb ta’lim standartlariga asoslangan interfaol va sotsiomadaniy yondashuvlarini (Ryding, 2005) O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari sharoitiga moslashtirishda ma’lum institutsional va uslubiy muammolar ko‘zga tashlanadi:

• amaldagi o‘quv rejalari va fan dasturlari asosan klassik va zamonaviy adabiy tilni grammatik jihatdan o‘zlashtirishga qaratilgan. Auditoriya soatlarining cheklanganligi sababli, bo‘lajak o‘qituvchilarga arab dialektlari va sotsiomadaniy komponentlarni o‘rgatish uchun alohida vaqt ajratish professor-o‘qituvchilardan o‘ta katta mahorat va o‘quv dasturini zichlashtirishni talab etadi.

• milliy ta’lim tizimida arab tilini o‘qitish bo‘yicha yaratilgan aksariyat darsliklar sun’iy tuzilgan o‘quv matnlaridan iborat bo‘lib, ularda arab dunyosining jonli madaniyatini aks ettiruvchi autentik materiallar (audio, video, real hayotiy dialoglar) yetishmaydi. G‘arb darsliklari (masalan, «al-Kitob fi ta’allum al-arabiya») esa juda boy madaniy va dialektal bazaga ega bo‘lsa-da, ularni o‘zbek auditoriyasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash qiyin, chunki ular ingliz tiliga tayanadi va g‘arb tafakkuri asosida tuzilgan (Brustad va b., 2011).

Xorijiy tajribadagi talabaga markazlashgan va rolli o‘yinlarga asoslangan ta’limni amaliyotga joriy etishda ba’zan talabalarning passivlikka o‘rganib qolganligi va darsni shunchaki ma’lumotlarni yozib olishdan iborat deb tushunishlari qiyinchilik tug‘diradi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, bo‘lajak arab tili o‘qituvchilarida madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish jarayoni oddiy mexanik jarayon emas. U chuqur psixologik to‘siqlarni yengish va amaldagi o‘quv dasturlariga

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

zamonaviy xorijiy TAFL tajribasini milliy moslashuv tamoyillari asosida, ehtiyotkorlik bilan singdirishni taqozo etadi.

XULOSA

Olib borilgan chuqur nazariy tahlillar, uzoq yillik auditoriya kuzatuvlari hamda empirik tajriba-sinov ishlari natijasida shunday qat'iy xulosaga keldikki, hozirgi globallashuv va madaniyatlararo integratsiya sharoitida arab tili o'qituvchisining missiyasi tubdan o'zgardi. Bugungi kun pedagogi shunchaki leksik-grammatik qoidalarni o'rgatuvchi va matn tarjimasini nazorat qiluvchi shaxs emas, balki talabalarni boy arab sivilizatsiyasi bilan bog'lovchi faol «madaniyatlararo vositachi» bo'lmog'i lozim.

Ushbu tadqiqotning eng bosh va fundamental xulosasi shundan iboratki, kasbiy va madaniyatlararo kompetensiyalar – xuddi qushning ikki qanoti kabi, bo'lajak o'qituvchi muvaffaqiyatining ajralmas va bir-birini to'ldiruvchi tayanchidir. Faqatgina til qoidalari (bir qanot) bilan to'laqonli parvoz qilib bo'lmaganidek, madaniy va sotsiopragmatik kontekstdan uzib qo'yilgan quruq akademik til ta'limi ham amaliy muloqotda o'zini oqlamaydi. O'qituvchining kasbiy mahorati aynan shu madaniy bilimlarni dars jarayoniga qanchalik tabiiy va samarali singdira olishida namoyon bo'ladi.

Mahalliy oliy ta'lim muassasalari filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishlaridagi mavjud holat, tajriba-sinov natijalari hamda shaxsiy pedagogik amaliyotimizdan kelib chiqib, tizimni takomillashtirishga qaratilgan quyidagi amaliy-metodik tavsiyalarni ilgari suramiz:

1. Oliy ta'lim muassasalaridagi arab tili o'qitish metodikasi va asosiy o'rganilayotgan til fanlari sillabuslariga sotsiomadaniy komponentlarni majburiy tartibda kiritish zarur.

Madaniyatlararo muloqot, nutqiy etiket va kognitiv psixologiyaga oid alohida amaliy modullarni (masalan, «Arab dunyosida muloqot madaniyati») o'quv rejasiga fan sifatida kiritish maqsadga muvofiq.

2. «Bitta arab tili» xalqaro yondashuviga tayangan holda, darslarning qat'iy 15-20 foizini ommabop arab dialektlariga (ayniqsa, ko'p ishlatiladigan Misr yoki Shom shevalariga) ajratish tavsiya etiladi. Bu o'zbekzabon talabalarda ertaga yuzaga kelishi mumkin bo'lgan «diglossik shok»ning oldini oladi.

3. Mahalliy metodistlar arab hamkasblar bilan hamkorlikda real voqelikka asoslangan, ichida audio va video kontentlari bor (autentik materiallar) milliy darsliklar yaratishlari davr talabidir. Darsliklarda arab davlatlaridagi xilma-xil madaniy vaziyatlar o'zbek mentaliteti bilan qiyosiy tarzda berilishi kerak.

4. Bo'lajak o'qituvchilarning bilimini baholashda yozma test yoki faqat tarjimani emas, balki «muammoli vaziyatni yechish» va rolli o'yinlar orqali ularning pragmatik adekvatligini, ya'ni arab muloqot odobiga qay darajada rioya qilayotganligini (kinestetika, to'g'ri murojaat shakli) baholash mezonlarini ishlab chiqish lozim.

Umid qilamizki, ushbu ilmiy maqolada ko'tarilgan masalalar va ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar O'zbekiston oliy ta'lim tizimida arab tilini chet tili sifatida o'qitish metodikasini yangi bosqichga olib chiqishga, shuningdek, raqobatbardosh, chuqur madaniy bilimlarga ega yosh kadrlar avlodini tayyorlashga o'zining munosib hissasini qo'shadi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2012). Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida (PQ-1875-son qaror, 10-dekabr). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.
2. J. J. Jalolov. (2012). Chet til o'qitish metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. O'qituvchi.
3. Mahmoud Al-Batal (Ed.). (2018). Arabic as one language: Integrating dialect in the Arabic language curriculum. Georgetown University Press.
4. Claire Kramsch. (1993). Context and culture in language teaching. Oxford University Press.
5. Michael Byram. (1997). Teaching and assessing intercultural communicative competence. Multilingual Matters.
6. A. Xolmuradov. (2021). Arab tilini o'qitishda sotsiopragmatik kompetensiyani rivojlantirishning metodik xususiyatlari. Sharqshunoslik va islomshunoslik masalalari, 4(2), 45–52.
7. J. J. Jalolov, U. H. Hoshimov, & I. Y. Yoqubov. (2015). Chet tili o'qitish metodikasi. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.
8. Vitaly A. Slastenin, Ilya F. Isaev, & Evgeny N. Shiyanov. (2013). Pedagogika: Uchebnik dlya studentov vysshikh uchebnykh zavedeniy. Akademiya.
9. Jack C. Richards & Theodore S. Rodgers. (2014). Approaches and methods in language teaching (3rd ed.). Cambridge University Press.
10. Michael Byram. (1997). Teaching and assessing intercultural communicative competence. Multilingual Matters.
11. Claire Kramsch. (1993). Context and culture in language teaching. Oxford University Press.
12. Mahmoud Al-Batal (Ed.). (2018). Arabic as one language: Integrating dialect in the Arabic language curriculum. Georgetown University Press.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

13. Kassem M. Wahba, Zeinab A. Taha, & Liz England (Eds.). (2006). Handbook for Arabic language teaching professionals in the 21st century. Lawrence Erlbaum Associates.
14. Zoltán Dörnyei. (2007). Research methods in applied linguistics: Quantitative, qualitative, and mixed methodologies. Oxford University Press.
15. John W. Creswell. (2014). Research design: Qualitative, quantitative, and mixed methods approaches (4th ed.). SAGE Publications.
16. D. I. Ro‘ziyeva & O‘. Q. Tolipov. (2014). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Innovatsiya-Ziyo.
17. Alison Mackey & Susan M. Gass. (2015). Second language research: Methodology and design (2nd ed.). Routledge.
18. Jane Willis. (1996). A framework for task-based learning. Longman.
19. M. Al-Bosh. (2019). The role of body language in Arabic communication and its implications for teaching Arabic as a foreign language. Journal of Arabic Sociolinguistics, 3(1), 22–38.
20. Karin C. Ryding. (2013). Teaching and learning Arabic as a foreign language: A guide for teachers. Georgetown University Press.
21. M. O‘razboyev. (2022). Oliy ta’limda chet tili o‘qituvchilarining sotsiopragmatik kompetensiyasini baholash mezonlari. Uzluksiz ta’lim, (5), 74–79.
22. Mahmoud Al-Batal & R. Kirk Belnap. (2006). The teaching and learning of Arabic in the United States: Realities, needs, and future directions. In Kassem M. Wahba, Zeinab A. Taha, & Liz England (Eds.), Handbook for Arabic language teaching professionals in the 21st century (pp. 389–399). Lawrence Erlbaum Associates.
23. Emma Trentman. (2013). Arabic and English during study abroad in Cairo, Egypt: Issues of access and use. The Modern Language Journal, 97(2), 457–473.
24. Karin C. Ryding. (2005). A reference grammar of Modern Standard Arabic. Cambridge University Press.
25. Kristen Brustad, Mahmoud Al-Batal, & Abbas Al-Tonsi. (2011). Al-Kitaab fii ta’allum al-‘Arabiyya: A textbook for beginning Arabic (3rd ed.). Georgetown University Press.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2012). Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (PQ-1875-son qaror, 10-dekabr). O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami.
2. J. J. Jalolov. (2012). Chet til o‘qitish metodikasi: Chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. O‘qituvchi.
3. Mahmoud Al-Batal (Ed.). (2018). Arabic as one language: Integrating dialect in the Arabic language curriculum. Georgetown University Press.
4. Claire Kramsch. (1993). Context and culture in language teaching. Oxford University Press.
5. Michael Byram. (1997). Teaching and assessing intercultural communicative competence. Multilingual Matters.
6. A. Xolmuradov. (2021). Arab tilini o‘qitishda sotsiopragmatik kompetensiyani rivojlantirishning metodik xususiyatlari. Sharqshunoslik va islomshunoslik masalalari, 4(2), 45–52.
7. J. J. Jalolov, U. H. Hoshimov, & I. Y. Yoqubov. (2015). Chet tili o‘qitish metodikasi. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.
8. Vitaly A. Slastenin, Ilya F. Isaev, & Evgeny N. Shiyanov. (2013). Pedagogika: Uchebnik dlya studentov vysshikh uchebnykh zavedeniy. Akademiya.
9. Jack C. Richards & Theodore S. Rodgers. (2014). Approaches and methods in language teaching (3rd ed.). Cambridge University Press.
10. Michael Byram. (1997). Teaching and assessing intercultural communicative competence. Multilingual Matters.
11. Claire Kramsch. (1993). Context and culture in language teaching. Oxford University Press.
12. Mahmoud Al-Batal (Ed.). (2018). Arabic as one language: Integrating dialect in the Arabic language curriculum. Georgetown University Press.
13. Kassem M. Wahba, Zeinab A. Taha, & Liz England (Eds.). (2006). Handbook for Arabic language teaching professionals in the 21st century. Lawrence Erlbaum Associates.
14. Zoltán Dörnyei. (2007). Research methods in applied linguistics: Quantitative, qualitative, and mixed methodologies. Oxford University Press.
15. John W. Creswell. (2014). Research design: Qualitative, quantitative, and mixed methods approaches (4th ed.). SAGE Publications.
16. D. I. Ro‘ziyeva & O‘. Q. Tolipov. (2014). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Innovatsiya-Ziyo.
17. Alison Mackey & Susan M. Gass. (2015). Second language research: Methodology and design (2nd ed.). Routledge.
18. Jane Willis. (1996). A framework for task-based learning. Longman.
19. M. Al-Bosh. (2019). The role of body language in Arabic communication and its implications for teaching Arabic as a foreign language. Journal of Arabic Sociolinguistics, 3(1), 22–38.
20. Karin C. Ryding. (2013). Teaching and learning Arabic as a foreign language: A guide for teachers. Georgetown University Press.
21. M. O‘razboyev. (2022). Oliy ta’limda chet tili o‘qituvchilarining sotsiopragmatik kompetensiyasini baholash mezonlari. Uzluksiz ta’lim, (5), 74–79.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

22. Mahmoud Al-Batal & R. Kirk Belnap. (2006). The teaching and learning of Arabic in the United States: Realities, needs, and future directions. In Kassem M. Wahba, Zeinab A. Taha, & Liz England (Eds.), Handbook for Arabic language teaching professionals in the 21st century (pp. 389–399). Lawrence Erlbaum Associates.
23. Emma Trentman. (2013). Arabic and English during study abroad in Cairo, Egypt: Issues of access and use. The Modern Language Journal, 97(2), 457–473.
24. Karin C. Ryding. (2005). A reference grammar of Modern Standard Arabic. Cambridge University Press.
25. Kristen Brustad, Mahmoud Al-Batal, & Abbas Al-Tonsi. (2011). Al-Kitaab fii ta'allum al-'Arabiyya: A textbook for beginning Arabic (3rd ed.). Georgetown University Press.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZINING «MOTURIDIYLIK» JURNALI

Mazkur nashr oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Jurnaldan ko‘chirma olinganda manba qayd etilishi shart.

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

2/2026

Bosh muharrir: **K.Shermuxamedov**
Muharrir: **A.Tajiyev**
Nashr uchun mas’ul: **Z.Arslonov**
Chet tillaridagi matnlar muharriri: **O.Sotvoldiyev**
Dizayner-sahifalovchi: **Z.G‘ulomov**

Nashriyotning lisenziya raqami AI № 0011. 06.05.2019-yil.
Bosishga 10.11.2026-yil ruxsat etildi. Bichimi 60×84 1/8.
Rizograf usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i 10,2.
Nashr tabog‘i 10,4. Buyurtma № 23/1.
Bahosi shartnoma asosida.

“Standard Poligraf Service”
MCHJ qo‘shma korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
100152, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Foziltepa ko‘chasi, 12B.